

**TARBIYA — MILLAT KO‘ZGUSI**

**Shafayeva Muxlisa Davlatovna**

*Qashqadaryo viloyati Yakkabog’ tumanidagi 102-sonli umumiy o’rta ta’lim maktabi Tarix fani o’qituvchisi*

***Annotatsiya.** Mazkur maqola tarbiya va uning jamiyatdagi o’rni haqida chuqur falsafiy va pedagogik fikrlarni o’zida jamlagan. Unda tarbiyaning inson kamolotidagi o’rni, millat kelajagini shakllantirishdagi ahamiyati va ahloqiy qadriyatlarining avloddan-avlodga o’tishida tutgan roli keng yoritilgan. Muallif tarbiyani millatning ma’naviy ko’zgusi sifatida tasvirlaydi, ya’ni u orqali jamiyatning umumiy ahvoli va kelajagi haqida xulosa qilish mumkin.*

***Kalit so‘zlar:** tarbiya, ko’zgu, muloqot, vatan, avlod, jamiyat, davlat, rivojlanish, madaniyat, ma’naviyat.*

Najot – ta’limda, najot – tarbiyada, najot – bilimda. Bu inkor etib bo’lmaydigan haqiqat. Sababi barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya orqali erishiladi. Zero, ta’lim va tarbiya insonning asl siyratini ko’rsatuvchi shaffof oyna hamdir. Mamlakatimizda ta’lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish, sog’lom, yuksak ma’naviyatli yoshlarni voyaga yetkazish, o’quvchilarda erkin, tanqidiy va kreativ fikrlashni, jamoada ishlash va muloqot ko’nikmalarini shakllantirish, yosh avlod ongiga Vatanga sodiqlik va uning taqdiri uchun daxldorlik hissini singdirish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilayotgani boisi ham shunda. Xususan, Prezidentimiz raisligida ijtimoiy sohalaridagi ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan o’tkazilgan videoselektor yig’ilishida ham ushbu masalaga alohida e’tibor qaratilib, ta’lim, sog’liqni saqlash, madaniyat va sport sohalarini rivojlantirish bo’yicha muhim vazifalar belgilab berildi.

Tarbiya insonning hayotida muhim o’rin egallaydi. U nafaqat bir kishining, balki butun jamiyatning rivojlanishiga, madaniyatining o’sishiga va kelajak avlodlarning shakllanishiga bevosita ta’sir ko’rsatadi. Shu sababli, tarbiyani millat ko’zgusi deb atash o’rinlidir. Tarbiya insonning ma’naviy va jismoniy rivojlanishi jarayonidir. U shaxsning o’zini anglashidan tortib, jamiyatda o’z o’rnini topishigacha bo’lgan barcha bosqichlarni qamrab oladi. Tarbiya quyidagi jihatlari bilan millatning o’ziga xosligini aks ettiradi:

*1. Ma’naviyat va axloqiy qadriyatlar:* Har bir millatning o’ziga xos ma’naviy va axloqiy qadriyatlari bor. Ushbu qadriyatlar yosh avlodga tarbiya orqali yetkaziladi. Masalan, halollik, hurmat, mehnatsevarlik kabi fazilatlar millatning madaniy boyligining bir qismidir.

*2. Til va madaniyat:* Tarbiya jarayonida milliy til va madaniyat avloddan-avlodga o’tadi. Til – millatning ruhidir, madaniyat esa uning ko’rinishidir. Shu sababli tarbiya til va madaniyatni saqlashda asosiy omil hisoblanadi.

3. *Jamiyatdagi o‘rni*: Tarbiya millatning kelajakdagi o‘rnini belgilaydi. Yaxshi tarbiya olgan yoshlar kelajakda jamiyatni rivojlantiradi, noto‘g‘ri tarbiya esa millatni orqaga tortadi.

Millatning yuksalishi ko‘p jihatdan tarbiyaga bog‘liq. Agar tarbiya milliy ruhni aks ettirsa, u holda millat o‘zligini yo‘qotmaydi va global o‘zgarishlarga barqaror turadi. Tarbiyaning asosiy maqsadi shaxsni nafaqat ilmi, balki ma’naviyatli va mustahkam irodali qilib tarbiyalashdir. Tarbiya millatni aks ettiruvchi ko‘zgu bo‘lishi bilan birga, uning kelajagini ham belgilaydi. Yosh avlodni to‘g‘ri tarbiyalash orqali millatning ma’naviy va madaniy boyliklarini saqlab qolish mumkin. Shu sababli har bir inson tarbiyaning ahamiyatini anglab, unga jiddiy e’tibor qaratishi zarur. Tarbiya – millatning o‘tmishi, buguni va kelajagi o‘rtasidagi mustahkam ko‘prikdir. avvalo, o‘qituvchilar, ota-onalar va yoshlar tarbiyasi bilan shug‘ullanadigan mutaxassislariga mo‘ljallangan bo‘lsa-da, undagi fikrlar barcha o‘quvchilar uchun foydali va dolzarbdir.

"Tarbiya millat ko‘zgusi" insoniylik va milliylikni birlashtirgan holatda har bir avlodning ma’naviy kamolotiga hissa qo‘shadigan boy bilim manbai hisoblanadi.

Ma’rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy aytganidek, "Har bir millatning saodati yoshlarning yaxshi tarbiyasiga bog‘liqdir". Lekin keyingi paytda yoshlar tarbiyasi va ongiga tahdidlar tobora kuchayib borayotgani kishini o‘ylantiradi, mushohadaga chorlaydi. Xo‘sh, buning asosiy sabablari nimada? Bu ta’lim muassasalari rahbarlari yoshlarning o‘qishdan keyin nima bilan shug‘ullanayotganiga, ota-onalarning ham farzandlari uchun vaqt ajratib, ularni fanlarni qay darajada o‘zlashtirayotganiga qiziqmayotgani bilan bog‘liq, nazarimda.

Yoshlarni ana shunday mafkuraviy tahdidlardan himoya qilish, ularga sog‘lom fikr va motivatsiya berishga qaratilgan kontentlarni ko‘paytirish, ularni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga ixtisoslashgan alohida teleko‘rsatuvlar tashkil qilish, xorijdagi yoshlarimizga ko‘mak berish bo‘yicha alohida dastur ishlab chiqilishi ayni muddao bo‘ladi. Yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishni tashkil etish dolzarb masala hisoblanadi. Bu borada o‘quvchilar bilimi, tahliliy, tanqidiy va kreativ fikrlashi, muammolarga yechim topib, amaliyotda qo‘llay olish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan o‘quv metodikalari ishlab chiqilishi g‘oyatda muhim, deb hisoblayman. Sababi yoshlar qanchalik ma’naviy barkamol bo‘lsa, turli yot illatlarga qarshi immuniteti ham shunchalik kuchli bo‘ladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Alisherovna, M. K. (2022). Attracting investment to regions-An important factor of development. Asian Journal Of Research In Banking And Finance, 12(3), 10-13.

2. Mamadaliev K. R., Jabborova O. M., Umarova Z. A., & Abdullayeva B. P. (2020). Creation of a New Generation of Teaching Literature - A Requirement of Modernity.
3. Mardonov S., Toshtemirova S., Ahmadjonov B., & Koshanova N. (2020). Structure and Mechanisms of Action of the Educational Cluster. *International Journal of Psychological Rehabilitation*, 24(07), 8104-8111.
4. Mukhitdinova, K. A., & Sayfutdinova, N. F. (2022). Status of development of innovative activities of industrial enterprises. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 11(5), 363-368.
5. Usarov D.E., & Suyarov K.T. (2020). Developing Pupils' Learning and Research Skills on the Basis of Physical Experiments. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(02), 1337-1346.
6. Alisherovna, M. K. (2022). Use of communication networks in the optimization of investment project work. *TRANS Asian Journal of Marketing & Management Research*, 11(5and6), 49-52.
7. Ерназарова Г. О., & Исламова М. Ш. (2019). Совершенствование подготовки к профессии учащихся профессиональных колледжей на основе акмеологического подхода. *Педагогика. Психология. Теория и практика Интернационал журнал*, 6(26), 52-55.
8. Alisherovna, M. K. (2022). Assessment of investment attractiveness of industrial enterprises.
9. Mukhitdinova, K. (2022). Increasing the Efficiency of Investment Activities of Automotive Enterprises. *International Finance and Accounting*, 2022(1), 20.
10. Жабборова О. М. (2020). Психологические функции, формирующие художественное сознание студентов. *Педагогические науки*, 1(46), 144-145.
11. Исмаилова Д. М., & Каримов С. Ш. (2019). Актуальные проблемы технологического образования школьников. *ВЫСШАЯ ШКОЛА Научно-практический журнал*, (22), 6-8.
12. Alisherovna, M. K. (2021). Car transport an approach to the research of the essence of investment activities of enterprises. *Asian Journal Of Multidimensional Research*, 10(5), 415-418.
13. Allaberganov, D., & Zubtiyev, S. (2023). Specific Pathomorphology Of Liver Tissue In Neonatal Sepsis. *Talqin va tadqiqotlar*, 1(7).